

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

 Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

Jild 3, Son s/8

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ S/8 (3)-2023***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойкулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирорев Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаси ҳузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Диљдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

---

### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари** электрон журнали  
1368-сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

Тайланова Шохида Зайниневна - педагогика фанлари доктори, доцент.

### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакулович -сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич -сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Намазова Умида Нормуродовна</i>	
ФРАГМЕНТЫ ИЗ ИСТОРИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ (1929-1945 ГОДЫ).....	10-15
<i>Эрназаров Туйгун Раджабович</i>	
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ- ГУБЕРНАТОРСТВА: КЛЮЧЕВЫЕ МОМЕНТЫ И ДОСТИЖЕНИЯ .....	16-21
<i>Хужсаниязов Уктам Ешбаевич</i>	
“ҚОРАҚАЛПОҚФИЛЬМ” СТУДИЯСИ ҲУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА ТАРИХИЙ МАВЗУЛАР ТАЛҚИНИ .....	22-27
<i>Шаимқулов Азамат Холмуратович</i>	
ҚАЙТА ҚУРИШ ДАВРИ МАТБУОТИДА ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАР ТАЛҚИНИ .....	28-38
<i>Муродов Ҳалим Салимович</i>	
ТУРИЗМ РИВОЖИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР .....	39-46
<i>Юлдашев Сайданварбек Баҳромжон ўғли</i>	
ФАРФОНА ВОДИЙСИНИНГ- ҚОРАХОНИЙЛАР ТОМОНИДАН ЗАБТ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН .....	47-51
<i>Shonazarova Nargiza</i>	
TOSHKENT SHAHRIDA “OBOD MAHALLA” DASTURI VA UNING IJROSI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR .....	52-57
<i>Axmadova Nafisa Axmad qizi</i>	
O’ZBEKISTON VA FRANSIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI .....	58-64
<i>Qodirova Ra’no Mamirjonovna</i>	
O’ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINING O’QITILISHI .....	65-70
<i>Yunusxo’jayev Habibulla Zafar g’o’li</i>	
SHARQDA KUCHLI IJTIMOIY HIMoya TIZIMI TARIXI .....	71-75
<i>Нарбеков Абдикамил</i>	
НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО СУЩНОСТЬ .....	76-80
<i>Alimova G’unchaxon Baxadirovna</i>	
JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI DIN VA DAVLAT MISOLIDA .....	81-85
<i>Jumanazarova Fotima</i>	
XOTIN QIZLAR BANDLIGINI TA’MINLASH TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....	88-93

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Ziyodilloev Khushnud Rahimboevich</i>	
PORTFOLIO OPTIMIZATION OF COMMERCIAL BANK CREDITS: A LITERATURE REVIEW .....	94-100

<i>Hamrayev Amirzoda</i>	
ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI TASHKILOTLAR KAPITAL STRUKTURASI SAMARADORLIGI TAHLILI .....	101-109
<i>Xaytboeva Nigora Bakmatatovna</i>	
ТҮҚИМАЧИЛИК САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА МАРКЕТИНГ СТРАТЕГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ БҮЙИЧА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАЛАРИ .....	110-119
<i>Xalilov Qahramon Qurbanboyevich</i>	
MINTAQADA TURIZM HUNARMANDCHILIK KLASTERINI SHAKLLANTIRISHNING DESTINATSION MODELI.....	120-132
<i>Makhmudov Tursunpuлат Davronovich</i>	
ИНВЕСТИЦИЯ МАНБАЛАРИНИНГ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИ .....	133-144
<i>Ishchanova Salomat</i>	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING FAOLIYATINING O'RNI.....	145-150
<i>Mўйдинова Зилола Воҳид қизи</i>	
ЧЕГАРА БОЖХОНА ПОСТЛАРИ ФАОЛИЯТИДА "АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ЙЎЛОВЧИ ҲАРАКАТИ" МОБИЛ ИЛОВАСИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	151-158
<i>Samandarov O'gabek, Ismoilov Shohjahon</i>	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	159-164
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Saidova Kamola Uskanbaevna</i>	
ФЕНОМЕН СВОБОДЫ ДЛЯ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА: КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ .....	165-173
<i>Omonturdiyev Orzu G'afforovich</i>	
INSONNING MA'NAVIY MOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI .....	174-179
<i>Ochilova Guzal Aralovna</i>	
ЮКСАК МА'ННВАИЯТ-МАНФААТЛАР БИРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ.....	180-185
<i>Nurmatova Umida Jalolidinovna</i>	
MUTOLAA, SAVODXONLIK VA TA'LIMNING ANTINOMIK XUSUSIYATLARI.....	186-192
<i>Vafayeva Dilafruz Artikovna</i>	
AHMAD YASSAVIY TASAVVUFİY TA'LIMOTIDA MA'NAVIY BARKAMOLLIK.....	193-198
<i>Karimov Zafarbek Ataboyevich</i>	
IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARINING SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	199-202
<i>Bozorova Ro'zigul Sharofovna</i>	
MEHRSIZLIK HODISASINI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR .....	203-212
<i>Xudoyberdieva Anorabonu Hayotovna</i>	
DINIY MANBALARDA IJTIMOY HAMKORLIK O'YALARI .....	213-218
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i>	
TASAVVUF FALSAFASIDA GO'ZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI .....	219-224

*Dehqonov Behzod Baxtityorovich*

YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA YETTI PIRNING  
BAG'RIKENGLIK G'OYALARINI O'RNI VA AHAMIYATI ..... 225-230

*Abdullayeva Firuza Sharipovna*

NASIRIDDIN TUSIYNING IDROK NAZARIYASI VA KOMILLIK FALSAFASI ..... 231-236

*Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich*

SHIHOBUDDIN UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL -MAORIF" ASARI VA UNDA ILGARI  
SURILGAN G'OYALAR ..... 237-243

*Ибрагимов Солижон Эргашович*

АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА "ОММАВИЙ МАДАНИЯТ" ТАҲДИДИ ..... 244-251

## **10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Qodirova Mukaddas Tog'ayena*

BIZNES DISKURSINING MURAKKAB LINGVISTIK TABIATI ..... 252-257

*Abdullayev Ikramjon Xashimjanovich*

DIFFERENT APPROACHES TO THE QUANTITATIVE-STATISTICAL CHARACTERISTICS OF  
PARTS OF SPEECH IN THE ENGLISH LANGUAGE ..... 258-265

*Hamroyeva Sharifa Shukur qizi*

TARJIMADA MILLIY SO'ZLARNING BERILISHI (OYBEKNING "NAVOIY" ROMANI INGLIZCHA  
TARJIMASI MISOLIDA) ..... 266-271

*Olimova Gulfiza Muradullayevna*

BADIY SAN'AT TURLARINING XORAZM DOSTONLARIDA QO'LLANILISHI ..... 272-281

*Айниддинов Иқрориддин Шарифович*

АДАБИЙ МАНБАЛАРДА АШРАФ САМАРҚАНДИЙНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИНИНГ  
ЎРГАНИЛИШИ ..... 282-287

*Turaeva Dilfuza Daminovna*

O'ZBEK TILIDA OBRAZLI SO'ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI ..... 288-295

*Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna*

LISONIY GRADASIYANING MORFOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK SATHDA PARADIGMA  
SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI ..... 296-305

*Ashurova Maftuna Asqar qizi, Yuldashev Rustam Dilshod ugli*

LINGUOCULTURAL COMPARATIVE ANALYSIS OF IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK  
LANGUAGES ..... 306-311

*Isroilova Manzura Jamolovna*

FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARDA KOMPARATIV FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING  
KOMMUNIKATIV TA'SIRI XUSUSIDA ..... 312-317

*Шамақсудова Саодат Хидоятовна*

МАССМЕДИА АСПЕКТИНИНГ МЕДИАМАТН ШАКЛИГА КЕЛИШИДАГИ ЎЗИГА  
ХОСЛИКЛАР ..... 318-324

*Шатова Ирина Юрьевна*

ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЛЕКСИКИ ПО РОДУ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЦ В РУССКОМ И  
УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ..... 325-330

*Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna*

FRAZEOLOGIK DERIVATLARNI KONTEKSTLARDA ISHLATILISHINING  
COGNITIV ASOSLARI ..... 331-335

<i>Alimjanova Shohsanam Azamat qizi</i>	
КО'Р МА'NOLI IBORALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI .....	336-340
<i>Турниязова Шахноза Нигматовна</i>	
МАТНДАГИ БОҒЛАНИШЛИЛИК ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	341-347
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i>	
INGLIZ ADABIYOTI TUSHUNCHALARINING XILMA -XILLIGI .....	348-352
<i>Aminova Dilnoza Xikmatullayevna</i>	
THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE ORIGIN OF MILITARY TERMINOLOGY .....	353-358

## 12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Исломқурова Шоҳсанам Баҳобжон қизи</i>	
ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШ	
ТУШУНЧАСИ ВА МОҲИЯТИ .....	359-365

<i>Mamataliyev To'lqin Xushmamat o'g'li</i>	
О'zbekistonda MASOFAVIY TA'LIM HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI .....	366-378

## 13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Saidov Jur'at Sodirovich</i>	
МАКТАБГАЧА TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TARBIYA	
BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	379-384

<i>Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna,</i>	
TEXNIK OLIY O'QUV YURLARIDA OO'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH	
USUL VA METODLARI .....	385-390

<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i>	
ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ИГРОПЕДАГОГИКИ	
В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ .....	391-396

<i>Tўрахонова Барно Турсунбой кизи</i>	
БЎЛАЖАК ПЕДАГОГ-ПСИХОЛОГЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШГА	
ТАЙЁРЛАШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ .....	397-406

<i>Ashurova Sitora Erkinovna</i>	
USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION .....	407-412

<i>Каримжонова Мунаеввар Ибрагимовна</i>	
ХИЗМАТ ИТЛАРИНИ МАХСУС ЙЎНАЛИШГА ТАЙЁРЛАШДА УНГА	
ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ (Божхона қўмитасининг Миллий кинология маркази мисолида).....	413-421

<i>Xamirayev Rustam Abdirazakovich</i>	
VOLEYBOLCHILARDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARINI	
TAKOMILLASHTIRISH .....	422-426

<i>Хашимова Масуда Камилжановна</i>	
КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ	
ИНТЕГРАЦИИ НАУК .....	427-435

<i>Бердиқурова Насиба Эркинжоновна</i>	
СОДЕРЖАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В	
НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ .....	436-442

*Saidnazarova Gulshan Bolta qizi*

AL-BUXORIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO  
SIFATIDA ..... 443-448

**Turayeva Dilfuza Daminovna,**  
Karshi muhandislik-iqtisodiyot instituti  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи katta o'qituvchisi  
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

### **O'ZBEK TILIDA OBRAZLI SO'ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Tilshunoslikda ko'chma so'z sifatida e'tirof etilgan obrazli birliklar, asosan, taqlid so'zi bilan umumlashtirib o'rganiladi. Biroq, taqlid xarakteriga ega bo'lgan taqlid so'zlardan farqli o'laroq, ko'chma birliklar kuchliroq ma'noga ega. Shuningdek, ularning funksionalligi, hosilalanishga moyilligi taqlid birliklaridan yuqori. Ko'chma birliklarning qiymat doirasi ham keng; noaniqlik. Bu birliklar derivativ xususiyatga ham ega. Sinonimiya va konflikt kabi semantik munosabatlar ko'chma so'zlarga nisbatan ko'chma birliklar orasida ko'proq uchraydi. Bundan tashqari, ko'chma birliklar mutlaqo boshqa turkumga mansub leksemalar, xususan, sifatdosh turkumiga kiruvchi leksemalar yoki ko'pchilik ko'chma so'zlar asosidagi fe'llar orqali ham yasalishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** ko'chma so'zlar, taqlid so'zlar, ko'chma birliklar, semantik vazifa, nutq.

---

**Turaeva Dilfuza Daminovna,**  
Senior teacher of the Uzbek language  
and literature department of the Karshi  
Institute of Engineering and Economics  
Doctor of Philosophy in Philology (PhD)

### **SEMANTIC CHARACTERISTICS OF FIGURATIVE WORDS IN THE UZBEKI LANGUAGE**

**Abstract.** Figurative units recognized in linguistics as figurative words are studied mainly by generalizing them with the word imitation. However, unlike imitative words that have an imitative character, figurative units have a stronger meaning. Also, their functionality, susceptibility to derivation exceeds those of imitation units. The range of values of figurative units is also wide; ambiguity. These units also have a derivational feature. Semantic relationships such as synonymy and conflict are more common among figurative units compared to figurative words. In addition, figurative units can be formed by lexemes belonging to a completely different category, in particular, lexemes belonging to the category of adjectives or verbs based on most figurative words.

**Keywords:** figurative words, imitative words, figurative units, semantic function, speech.

---

**Тураева Дилфузда Даминовна,**  
Старший преподаватель кафедры  
узбекского языка и литературы  
Каршинского инженерно-  
экономического института  
Доктор философии в филологии (PhD)

### **СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБРАЗНЫХ СЛОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ**

**Аннотация.** Изобразительные единицы, признаваемые в лингвистике образными словами, изучаются главным образом путем их обобщения с помощью словесного подражания. Однако в отличие от подражательных слов, имеющих подражательный характер, образные единицы имеют более сильное

значение. Также их функциональность, подверженность деривации превосходят таковые у имитационных единиц. Диапазон значений образных единиц также широк; двусмысленность. Эти единицы также имеют деривационный признак. Семантические отношения, такие как синонимия и конфликт, более распространены среди образных единиц, чем среди образных слов. Кроме того, образные единицы могут образовываться лексемами, принадлежащими совершенно к другой категории, в частности, лексемами, относящимися к категории прилагательных или глаголов, основанных на большинстве образных слов.

**Ключевые слова:** образные слова, подражательные слова, образные единицы, семантическая функция, речь.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N40>

O'zbek tilidagi tasviriy birliklar taqlid so'zlarga bir necha tashqi omillariga ko'ra o'xshashdir. Masalan, har ikki tur leksemalarda juftlashish holati kuzatiladi, bo'g'inlar soni ham bir yoki ikkita bilan cheklanadi. Kelib chiqishiga ko'ra, har ikki turdag'i leksemalar tilning o'z qatlamiga oid bo'lib shu tilning fonetik xususiyatlari va bilvosita barcha so'zlashuvchilar uchun umumiy bo'lgan artikulyatsion imkoniyatlarni o'zida mujassam qiladi.

Belgi va uning ma'nosi orasidagi muvozanat doim ham teng bo'lavermaydi. Aksariyat hollarda bu notenglik ma'no foydasiga hal bo'ladi. Bunday notenglik, ayniqsa, tasviriy so'zlarda kuchliroq. Umuman olganda, tilning lug'at tarkibi turli vosita orqali kengayishi mumkin. Lug'at tarkibining kengayishi o'zlashma so'zlar, neologizmlar, shevaga xos so'zlar, qolaversa, obrazli so'zlar hisobiga amalga oshadi. Bu o'rinda ham, tasviriy birliklar taqlid so'zlarga nisbatan ustunlikka ega. Zero, obrazli so'zlar mustaqil leksema sifatida e'tirof etilishiga asoslar mavjud. Avvalo, taqlidlardan farqli o'laroq tasviriy birliklar hodisa yoki holatni nomlaydi, uning ayni o'zini imitatsiya qilmaydi. Obrazli so'zlar atash xususiyatiga egaligi bilan oraliq turkumdag'i undov va taqlidlardan ajralib turadi. Shuningdek, tasviriy so'zlarning derivatsion xarakteri ushbu so'zlarni mustaqil leksema sifatida e'tirof etishga asos bo'la oladi. Uchinchidan, tasviriy birliklar morfologik va sintaktik polifunksionalligidan tashqari, polisemantiklik xususiyatiga ega. Bir tasviriy so'z, ya'ni belgi bir necha ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Biroq polifunksionalligi va polisemantikligiga qaramasdan, ushbu so'zlarning qo'shimchasiz, nol shaklli ko'rinishi alohida leksema sifatida e'tirof etilmaydi. Ammo tasviriy so'zlarning semantik xususiyatini o'rganishda ularning mustaqil so'z turkumiga oid emasligi ikkinchi darajali masalaga aylanadi. Chunki "sistemani tashkil qiluvchi til birliklari haqida gap borganida aytildiki, muayyan sistemaga mansub til birligi shu sistemani shakllantirish uchun xizmat qiladi, sistema shu til birligi asosida shakllanadi. Jumladan, so'zning lug'aviy sistemani shakllantiruvchi birlik ekani ma'lum. Shuningdek, so'zning lug'aviy sistemani shakllantirishida uning ma'no jihatni (ma'nosi, sememasi) asosiy rol o'ynashi ham ma'lum. Demak, "yordamchi so'z" ("yordamchi leksema") deb atalayotgan birliklar lug'aviy ma'noga ega bo'lmas ekan, ularni so'z (leksema) deb atash ham to'g'ri bo'lmaydi. Chunki bular lug'aviy birlik (so'zga) xos bo'lgan mohiyatini yo'qotgan. Shuning uchun ham lug'aviy sistemaga mansub (lug'aviy sistemani shakllantiruvchi) birlik bo'la olmaydi". [1]

Semantik funksiyasiga ko'ra tasviriy birliklarni nutqda ikkinchi darajali vazifani bajaruvchi vosita sifatida qarash mumkin. Aytish joizki, bir qarashda tasviriy birliklarni sifat so'z turkumiga oid deyish mumkindek. Shunga ko'ra, ushbu vositalarni avvalo, semantik bo'yoqdorligiga ko'ra ijobiy, salbiy va mo'tadil guruhlarga ajratish mumkin, bunday tasnif guruhdagi deyarli barcha elementlarni qamrab oladi.

IJOBİY	NEYTRAL	SALBIY
<i>Yalt-yalt</i>	<i>chim-chim</i>	<i>Alang-jalang</i>
<i>charaq- charaq-</i>	<i>chos chosh-</i>	<i>dag'-dag'</i>
<i>jimir- jimir-</i>	<i>dirk-dirk</i>	<i>jikir-jikir</i>
<i>milt- milt-</i>	<i>duv-duv</i>	<i>qilpang- qilpang-</i>
<i>dikong- dikong-</i>	<i>g'ich- g'ich-</i>	<i>shalvir-shulvurp</i>
<i>mo'lt- mo'lt-</i>	<i>qult-qult</i>	<i>lors-lors</i>
<i>hur-hur</i>	<i>halp-halp</i>	<i>g'adir-g'udur</i>
<i>yilt-yilt</i>	<i>hars-hurs</i>	<i>zirq-zirq</i>
<i>hilp-hilp</i>	<i>jim-jim</i>	<i>g'imir-g'imir</i>
<i>hil-hil</i>	<i>jiqqa-jiqqa</i>	<i>shartta-shartta</i>
<i>jilvir-jilvir</i>	<i>Jing</i>	<i>larzang-larzang</i>
<i>liq-liq</i>	<i>Luq</i>	<i>lo'k - lo'k</i>

Yuqoridagi vositalar grammatik jihatdan moslashuvchanligi, qo'llanishiga ko'ra faolligi, ma'no turlarining bir til doirasida farq qilishi bilan ajralib turadi. Shunday ekan, ularni ma'lum bir semantik qolip asosida tartiblab bo'lmaydi. Biroq quyidagi misollar tasviriyo so'zlar anglatadigan asosiy semalarni qamrab oladi. Masalan, quyidagi tasviriyo birliklar nutqda qo'llanganda holat yoki hodisaning takroriyligi, bir maromdaligini anglatishi mumkin. Shuningdek, nutqda ushbu so'zlar o'z nomlab kelayotgan narsa-buyumning juda kichik hajmda ekanligini, biror harakatning sekinlik bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilganini ham anglatishi mumkin.

Masalan: *Lekin bular mening yulduzlarim, ular ko'zlarimdan oqib, milt-milt yonayotgan yuragim tubiga yomg'ir bo'lib tomchilardi* (J.Jovliev "Lobar").

*Ko'klam shabadalari dala-qirni aylanib-o'rgila boshladi degunicha esa bog'-hovlilarga g'imir-g'imir, simir-simir, jimir-jimir qon kiradi-jon kiradi* (X.Do'smuhammad "Erta bahor").

Shuningdek, biror narsaning tovlanishi va jilosini aks ettiruvchi obratzli so'zlar nutq kontekstida "soflik", "baxtlilik", "to'laqonlilik" ma'nosini ifodalashi mumkin.

Masalan: *Mollar halitdan tirsillab, yaltirab semirgan, sog'sa chelak-chelak sut beradi* (S.O'nar, "Otamzamon hangomalari").

*Yonarko'zning ko'zidek tong yulduzi osmonda charaqlab turar, otayotgan tongdan esa Oltin tulporning yer depsinib kishnashi eshitilardi...* (D.Dildoh, "Oltin tulpor").

Biror matnga emotivlikni bag'ishlash ham tasviriy birliklarning semasiga yuklangan vazifalardan biri bo'lishi mumkin. Bunday holatda obrazli so'zlar so'zlovchining biror bir vaziyat, holat va narsa-buyumga nisbatan shaxsiy munosabatini ham anglatadi.

Masalan: *Olamosh anchadan beri yolg'izlikdan zerikib yurganmi, bu uydagilar meni hech qayoqqa chiqarmaydi, deb xo'rsingan edi, o'sha qilpanglashda yoniga borib, unda o'zim kepturarman, deya biqiniga biqinimni qadadim* (A.Obidjon "Mo'ttivoymisan, mittivoymisan?").

*Sochlari jingalak, kipriklari uzun-uzun, charos ko'z, betlari lo'ppi, do'mboqqina, oppoqqina bu qizaloq bir yoshga to'lganida xuddi qo'g'irchoqqa o'xshardi* (T.Malik "Yulduzga aylangan qizaloq").

*Do'qi polvon shu kunlar uchinchi bolaga bo'g'oz qaynisinglisi erga tekkanida undirgan shoyi ko'ylagini dushman bayrog'idek tutamlaganicha tomorqaga larzanglab kirib keldi* (A.Obidjon "Serkaxonim").

Bir tasviriy birlik turli o'rinda har xil ma'noni anglatishi mumkin bo'lgan holatda buni lug'aviy emas, kontekstual polisemantiklik sifatida baholash lozim.

Tasviriy vositalar yozma va og'zaki nutqda bayon ifodaviyligi, emotivligi va ekspressivligini oshirish maqsadida qo'llanadi. Badiiy matnda ulardan ohangdorlik, jarangdorlik va qofiyani kuchaytirish uchun foydalaniladi. Bolalar adabiyotida ushbu so'zlar kichraytirish, erkalash ma'nolariga ega bo'lishi mumkin.

Obrazli so'zlar nutqda insonga yoki uning muayyan xatti-harakatiga ijobiy yoki salbiy baho berish maqsadida ham qo'llanadi, badiiy matnda bunday vositalar muallifning obyektiv munosabatini bildirishi bilan birga matnning umumiyligi poetik xususiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi misollardan tasviriy birliklarning badiiy matndagi semantik va stilistik vazifasi nechog'lik katta ekanligini anglash qiyin emas. Obrazli so'zlar o'z kichik tovush qolipidan bir necha barobar kattaroq bo'lgan semalarni ifodalay olishi ushbu vositalarning polisemantik xususiyatiga shubha qoldirmaydi.

Polisemantiklik xususiyatlaridan tashqari tasviriy so'zlar ma'no darajalanishini ham hosil qilishi mumkin. Ya'ni, obrazli so'zlar o'zaro bir-biriga sinonim yoki zid ma'noli vosita sifatida namoyon bo'la oladi. Bunday xususiyat tasviriy birliklarda taqlidiy so'zlardan ko'ra ko'proq ko'zga tashlanadi. "Leksik ma'nolarning paradigmatic munosabatini ko'rsatuvchi asosan ikki hodisa: sinonimiya va antonimiya hodisalari deyarli tillarning leksikologiya va semasiologiyaga bag'ishlangan darslik va monografiyalarida qayd etilib keladi." [2]

O'zining ma'nodoshlik, zid ma'nolilik xarakteristikasiga ko'ra tasviriy birliklar taqlidiy so'zlarga nisbatan ko'proq o'zaro aloqadorlikni tashkil qiluvchi sistema sifatida namoyon bo'ladi. Tasviriy so'zlarning sinonimik munosabatlarini quyidagi misollar yordamida dalillash mumkin.

O'zaro sinonim tasviriy birliklar	
<i>qimir-qimir</i>	<i>simir-simir</i>
<i>g'uj-g'uj</i>	<i>vij-vij</i>
<i>yalt-yalt</i>	<i>yilt-yilt</i>

<i>jiqqa-jiqqa</i>	<i>shilt-shilt</i>
<i>jimir-jimir</i>	<i>vijir-vijir</i>
<i>zir-zir</i>	<i>zirq-zirq</i>
<i>dir-dir</i>	<i>dag'-dag'</i>
<i>pitir-pitir</i>	<i>tipir-tipir</i>
<i>alang-jalang</i>	<i>ang-mang</i>
<i>lop-lop</i>	<i>lors-lors</i>
<i>milt-milt</i>	<i>sim-sim</i>
<i>jild-jild</i>	<i>yilt-yilt</i>
<i>jilpang-jilpang</i>	<i>qilpang-qilpang</i>

Sanab o'tilgan tasviriy birliklarning sinonimlari sifatida boshqa turkumga oid so'zlarni ham sanab o'tish mumkin. Masalan, *qimir-qimir* va *simir-simir* tasviriy birliklarining ma'nodoshi *pitirchilamoq* fe'li, *g'uj-g'uj*, *vij-vij* birliklarining muqobili *son-sanoqsiz* sifati, *yalt-yalt* va *yilt-yilt* ma'nosi *jimjimador* so'zida ham mujassam. Albatta boshqa obrazli so'zlarning ma'nosi ma'lum darajada turli turkumdagi leksemalar vositasida ifodalanishi mumkin bo'lsa-da, ularning tarkibidagi salbiy yoki ijobjiy bo'yoqdorlik ma'nosi qamrovdan tashqarida qoladi. Masalan, *ang-mang tikilmoq* birikmasiga ma'nodosh sifatida *hayron tikilmoq* qo'llash mumkin bo'lgani holda, ayni leksema *alang-jalang* tasviriy birligidagi salbiy semani namoyon qilmaydi. Ba'zi juftliklar esa bir-biridan tarkibidagi yagona tovushi bilan farqlanadi. Shuning uchun *jilpang-jilpang*, *qilpang-qilpang*, *pitir-pitir* kabi birliklarni ma'nodosh emas, variantdosh deb tasniflash o'rini bo'ladi.

#### O'zaro zid ma'noli tasviriy birliklar

<i>milt-milt</i>	<i>lov-lov</i>
<i>hilp-hilp</i>	<i>hur-hur</i>
<i>qilt-qilt</i>	<i>shap-shup</i>
<i>g'imir-simir</i>	<i>shart-shurt</i>
<i>dikong- dikong</i>	<i>lip-lip</i>
<i>mo'lt- mo'lt</i>	<i>lo'q- lo'q (nigoh)</i>
<i>mildir-mildir</i>	<i>jikang-jikang</i>
<i>miljing- miljing</i>	<i>qilpang- qilpang</i>

<i>pag'a-pag'a</i>	<i>shig'a-shig'a</i>
<i>lop-lop</i>	<i>qalt-qalt</i>
<i>zip-zip</i>	<i>shalvir-shulvur</i>
<i>sim-sim</i>	<i>lo'q-lo'q</i>
<i>g'adir-budur</i>	<i>yalt-yalt</i>
<i>larzang-larzang</i>	<i>miljang-miljang</i>

Birinchi juftlik *milt-milt*, *lov-lov* tasviriy birliklari olovni sifatlash uchun qo'llanib birinchisida uning past va qisqaligi belgilansa, ikkinchisi gulkanning uzoq muddat davom etgani va shiddatli ekanligini anglatadi. Bu ikki tasviriy so'z birikuvida umumiylit bo'lgani holda tasvirlovchi belgisiga ko'ra ziddiyat namoyon qiladi. Ayni holat *hilp-hilp* va *hur-hur* juftligida ham kuzatiladi. Birida shamolning sust sur'ati ifodalansa, ikkinchisidan shiddat ma'nosi anglashiladi. *Qilt-qilt*, *g'imir-simir* birliklari harakatning sekin va davomiy tarzini anglatadi, *shap-shup*, *shart-shurt* tasviriy birliklari esa aksincha harakatning tez sur'ati va tugallanganligiga ishora qiladi. *Mo'l't-mo'l't* obrazli so'zi vositasida nigohning iltijonamoligi ko'rsatilgani holda *lo'q-lo'q* surbetlik bilan tikilishni anglatadi. *Pag'a-pag'a* obrazli so'zi qor parchalarining kattaligini, *shig'a-shig'a* esa uning kichik hajmini belgilashga xizmat qiladi. *Shalvir-shulvur* kishi yoki uning harakati bo'shashgan, davomiy, sekinligini bildiradi. *Zip-zip* chaqqonlik, tezkorlik va qisqalikni anglatadi. Kuchsiz davomiy og'riqni tasvirlash uchun *sim-sim* qo'llaniladi, *lo'q-lo'q* kuchli og'riqni ifodalaydi. *G'adir-budur* yuzaning notejisligi va eskirganligini tasvirlash uchun qo'llanadi, *yalt-yalt* esa yuza tekisligi va yangiligiga ishora qiladi. Ushbu ikki tasviriy so'zni ikki semasiga ko'ra antonim deyish mumkin. *Larzang-larzang* va *miljang-miljang* so'zlari orasidagi ziddiyat ikki xil semani qamrab oladi. Agar bu so'zlar shaxs tasviri deb anglashilsa, birinchisi kishining basavlat ekanligini tasvirlasa, ikkinchisi uning jussasi kichik ekanligini bildiradi. Ushbu so'zlar kishi harakatini tasvirlash uchun qo'llanilganda harakatning sekin, yoki tez sur'atini ko'rsatadi.

Kontekstual polisemantika va o'zaro ma'no darajalanishi xususiyatidan tashqari tasviriy birliklar tilda mavjud bo'lgan boshqa leksemalarga, xususan, sifat turkumiga oid so'zlarga ma'nodosh bo'la oladi. Albatta, bunday sinonimik munosabat barcha obrazli so'zda mavjud bo'lmasa-da, quyidagi kabi so'zlarni nutqda mavjud sifatlarga variantdosh o'laroq, qo'llash mumkinligi o'zbek tilining so'z boyligi va ifodaviyligini oshiruvchi holat.

Ma'lumki, "betaraf birlik" deganda, til birligining shakl ko'rsatkichisiz bo'lishi emas, balki so'zning shaklsiz bo'lishi, shaklsiz holati – shaklsiz so'z nazarda tutiladi. Shuning uchun ham, ya'ni shaklsiz birlik bo'lgani uchun ham morfologik kategoriya, paradigmaga mansub bo'lmaydi, betaraf birlik hisoblanadi".[3] Lug'atlarda, jumladan, o'zbek tilining izohli lug'atida obrazli so'zlarning betaraf shakli ham, ular o'zagi asosida yasalgan boshqa mustaqil turkum so'zlar ham uchrab turadi.

Tasviriy vositalar yozma va og'zaki nutqda bayon ifodaviyligi, emotivligi va ekspressivligini oshirish maqsadida qo'llanadi. Badiiy matnda ulardan ohangdorlik, jarangdorlik va qofiyani kuchaytirish uchun foydalaniladi. Bolalar adabiyotida ushbu so'zlar kichraytirish, erkalash ma'nolariga ega bo'lishi mumkin.

Semik xususiyatlarga ko'ra ushbu vositalar ochiq sistemanı tashkil etadi, lug'aviy ma'no turlarini ko'paytirishi mumkin. Sanab o'tilgan ma'no turlariga ko'ra tasviriy birliklar o'zaro graduonimik, ma'nodoshlik, zid ma'nolilik hamda variantdoshlilik kabi munosabatlarga kirisha oladi. Ularning bevosita funksional xususiyati derivatsion imkoniyatlari sabab keng, uslubiy jihatdan esa ushbu vositalar hamda ular asosida shakllangan mustaqil so'zlar nutqda ifodaviylik va hissiylik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababdan, ularning qo'llanish doirasi og'zaki nutq va badiiy matnlar bilan cheklanadi.

Ma'lumki, leksemalar semasi uchga ajraladi: atash, ifoda va vazifa semalari. Obrazli so'zlarning barchasida ushbu uch sema mavjud deyish mumkin. Masalan, *mo'lт-mo'lт* tasviriy birligining atash semasi iltijoli nigohni anglatadi, bunda ko'zning yoshlanganligi, nigohning uzoqligi, kishining nochor, ilojsizligi ifodalanadi. Ushbu obrazli so'z gapda kesim, hol va aniqlovchi vazifasini bajaradi. Ba'zi tasviriy birliklarning ma'no tarkibini shu tariqa aniqlash mumkin. Tasviriy birliklar semasini o'rganar ekanmiz, ular biror holat, narsa-buyum yoki hodisaning imitatsiyasi emas, ularga nisbatan insonning munosabatini, ulardan olgan taassurotini ifodalashini anglab yetamiz. Shu jihatdan, ular *tasviriy so'z* emas, ko'proq *tasavvuriy so'z* atamasiga munosibroq.

Tilshunoslikda tilning kelib chiqishi xususida turli farazlar mavjud. Biroq bu qarashlarni umumiylashtirib ikkiga ajratish mumkin. Birinchi guruh vakillari tilning kelib chiqishini moddiy omillarga bog'laydilar. Jo'nroq aytganda, til insonning borliqdagi tovushlarga imitatsiyasi asosida bosqichma-bosqich shakllangan degan qarash ilgari suriladi. Bunga misol qilib undov va taqlid so'zlarni keltirish mumkin. Ushbu g'oya asosli emas, chunki u tilning barcha sathlarini qamrab ololmaydi. Jumladan, ushbu qarash mavhum tushunchalarni ifodalovchi leksemalarni chetlab o'tadi. Ikkinci g'oya esa tilning paydo bo'lishini ilohiyotga bog'laydi va idealistik g'oya deb ataladi. Inson borliqni sezgi organlari orqali qabul qiladi, ong vositasida idrok etadi va nutqda ifodalaydi. Obrazli so'zlar biror voqeа-hodisani inson vizual jihatdan qanday qabul qilgani va tilda qay yo'sinda ifodalashini namoyon etadi. Vizual sezgi va nutq orasida esa ushbu hodisaning inson ongida anglashilishi yotadi, zero inson tovush va shovqinsiz biror hodisani nutqqa ko'chirish chog'ida idrok eng muhim bosqich. Demak, tasviriy so'z shakllanishida, nafaqat vizual sezgi va til, balki ong ham ishtirok etishi shart. Shu sababdan, obrazli so'zlarni *tasavvuriy so'zlar* deb atash o'rini. Tilning har bir sathida o'z vazifasiga ega, barcha elementlari sememasida atash, ifoda va vazifa semalari mavjud bo'lgan obrazli so'zlarni o'ziga xos mikrofunktional-semantic maydon sifatida tasniflash mumkin.

Turli tillarda tasviriy birliklar fonetik, morfologik, sintaktik va semantic jihatdan hamda uslubiy o'ziga xosliklariga ko'ra paralellarni hosil qiladi. Xususan, o'zbek va ingliz tillarida ushbu so'zlarning tovush qobig'i juda tor, bir yoki ikki bo'g'indan iborat. Ularning tovush tarkibidagi fonetik kombinatsiya o'zining noodatiyligi bilan boshqa tur leksemalardan farq qiladi. O'zbek tilida tasviriy birliklarga juftlashish, takroriylik xos, juftlashganda so'zning ikkinchi qismida tovush o'zgarishlari kuzatilishi mumkin. Bular obrazli so'zlarning fonetik qurilishidagi o'ziga xoslik hisoblanadi. Boshqa tillarda, masalan, rus tilida bunday fonetik xususiyatga ega turkum leksemalar uchramaydi.

O'zbek tilshunosligida tasviriy birliklar morfologik sathda oraliq so'z turkumi sirasidagi taqlidlar guruhiга oid deya xulosa qilingan. Ularning atash semasidagi qavatlanish, ifodaviyligi, ya'ni ekspressivligi, shuningdek, derivatsion, funksional imkoniyatlari sabab mustaqil so'z turkumlariga yaqin turishini ta'kidlash lozim. Ayni shu jihatlari sabab obrazli so'zlar

taqlidlardan ustun, mustaqil turkim sifatida ajratishga munosib deyish mumkin. Garchi mustaqil so'z turkumi deya ajratilmasa-da, tasviriy birliklar o'zbek tili sistemasini tashkil qiluvchi, ushbu tizimda muayyan semantik, sintaktik, stilistik vazifani bajaruvchi til hodisasi hisoblanadi.

Obrazli so'zlar affiksial o'zgarishlar natijasida mustaqil lug'aviy ma'noga, alohida grammatic ko'rsatkichga ega leksemalarni hosil qiladi. Tasviriy birliklar asosida yasalgan leksemalar ot, fe'l, sifat va ravish so'z turkumlari doirasida uchraydi. Shunga qaramasdan, ushbu birlik asosi o'zbek tilida aksariyat hollarda fe'l yasashga xizmat qiladi.

Tasviriy birliklar sememasi o'zida uch asosiy sema, ya'ni atash, ifodalash va vazifa semalarini tashiydi. Vositalar atash semasi tabiat hodisasi, harakat, tabiiy holat, yuz ifodalari, inson tashqi ko'rinishi, inson fe'l-atvori tasviri va boshqa qator turlarni qamrab olishi mumkin. Ularning ifoda ma'nolari matn kontekstida anglashiladi, bunda asosiy atash ma'nosini ham qisman saqlanib qolishi mumkin. Shuningdek, tasviriy birliklar tizimida ma'no darajalanishi, ma'nodoshlik, zid ma'nolilik, ekvivalentlik munosabatlari mavjud. Ekvivalentlik, ya'ni variantdoshlik bir-biridan bir tovushga ko'ra farqlanuvchi leksemalar orasida kuzatiladi. Tasviriy birliklar o'zaro bir yoki bir necha semasiga ko'ra ma'nodosh va zid ma'noli bo'lishi mumkin. Ziddiyat yoki ma'nodoshlik hajm, harakat sur'ati, holatning tarz ma'nosidagi farq va o'xshashliklar asosida yuzaga keladi. Shuningdek, ma'nodoshlik va zid ma'nolilik munosabatlari faqat obrazli so'zlar turkumi doirasida kuzatilgani kabi obrazli so'zlar va boshqa mustaqil so'z turkumiga oid leksemalar, xususan, fe'l va sifatlar orasida ham bo'lishi mumkin. Taqlid so'zlarda esa boshqa turkumlar bilan o'zaro ma'no munosabatlari mavjud emas.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Ҳожиев А.Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. –Тошкент:Фан, 2010. – Б
2. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 20.
3. Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 209
4. Nizomova, M. B. (2023, May). The issue of formation of communicative-pragmatic direction in terminology. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 83-86).

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº S/8 (3) – 2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).